



### Toshkent viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2019 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma'lumot)

Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 387,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,6 % ga oshganini ko'rish mumkin. Hududlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliqda 3881,9 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish hakiga nisbatan 162,6 % ), Bekobod shahrida 2957,4 ming so'mni (123,9 %), Nurafshon shahrida 2 558,5 ming so'mni (108,3%) tashkil etdi. Aksincha, Oqqurg'on tumanida 1703,8 ming so'mni (71,4 %), Bo'ka tumanida 1651,0 ming so'mga (69,1%), Parkent tumanida 1589,0 ming so'mga (66,6 %), Bekobod tumanida 1488,0 ming so'mga (62,3%), pasayganligini ko'rish mumkin.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



(2019 yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)  
 (2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbati


(2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr	yanvar-sentabrga nisbatan % hiso- bida
Viloyat bo'yicha:	1888,1	2387,7	126,6
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	1835,9	2558,5	139,4
Olmaliq	3073,9	3881,9	126,3
Angren	1606,6	1939,7	120,7
Bekobod	2357,6	2957,4	125,4
Chirchiq	1795,4	2268,0	126,3
Ohangaron	1714,1	2209,1	128,9
Yangiyo'l	1345,6	1897,6	141,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1235,7	1703,8	137,9
Ohangaron	1415,6	1977,1	139,7
Bekobod	1153,6	1488,0	129,0
Bo'stonliq	1406,8	1980,7	140,8
Bo'ka	1295,9	1651,0	127,4
Zangiota	1620,0	2279,6	144,8
Qibray	1893,0	2184,7	112,4
Quyichirchiq	1309,5	1735,4	132,5
Parkent	1284,8	1589,0	123,7
Piskent	1280,8	1651,6	128,9
O'rtachirchiq	1605,4	1864,4	116,1
Chinoz	1451,1	1769,8	122,0
Yuqorichirchiq	1893,0	1971,9	104,2
Yangiyo'l	1624,7	2146,0	132,1
Toshkent	1513,5	1926,9	127,3




## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari % da

(2019 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan)





## Toshkent viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar– setabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:

Ta'limda 1585 ta muassasada 76147 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 27,9 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 123469,0 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 21,6 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1807,1 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 139,1 %ga o'sdi;



Sanoatda 99 ta korxonada 95631 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 35,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 844 911,8 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 49,5 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3305,4 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 125,3 %ga o'sdi;



**Toshkent viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar– sentabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:**

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 115 ta muassasada 38996 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 489852,3 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 8,5 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1395,7 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 139,3 % ga o'sdi;



Tashish va saqlashda 27 ta korxonada 3133 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 43119,9 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,0 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1529,2 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga o'sdi;



## Toshkent viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar– sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:

Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 82 ta muassasada 3662 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 111068,0 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,0 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3370,0 mln.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 136,4 %ga o'sdi.



**Ma'lumot uchun:** "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.



**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi**

**Tel: (71) 230-86-78, 230-86-79**